



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

**Durdona Yunusova Axtamovna<sup>1</sup>**  
**Mehribon Salimova Samijonovna<sup>2</sup>**

<sup>1</sup>Samarqand viloyati xalq ta'lifi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish  
hududiy markazi o'qituvchisi

<sup>2</sup>Toyloq tumani 5-umumi o'rta ta'lif maktabi ona tili va adabiyot o'qituvchisi

## ONA TILI DARSLARIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH TA'LIM SIFATINI OSHIRUVCHI OMILDIR

**Annotatsiya:** Maqolada interfaol usullarning turlari tahlil qilinadi va bu usullar ta'lif jarayonida darslarning mazmunini, sifatini boyishiga, o'quvchilarning tashabbuskorligiga, yangiliklarni tezkor qabul qilishiga samarali ta'sir ko'rsatilishi aniqlanadi.

**Kalit so'zlar:** interfaol, sinkveyn, FSMU, bilim, ko'nikma, malaka, dars.

Respublikamiz mustaqilligining dastlabki yillardayoq xalq ta'lifi sohasida tub islohotlar boshlab yuborildi. O'tgan davr mobaynida O'zbekiston Respubliasining "Ta'lif to'g 'risida"gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilinib, uning talablariga ko'ra sinovdan o'tkazilgan "Ona tili" davlat ta'lif standartlari tasdiqlandi va yangi mazmundagi "Ona tili" darsliklari yaratildi. Ona tili o'qituvchilari pedagogik texnologiya, axborot hamda innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va o'z faoliyatlarida qo'llashga bo'lgan qiziqishlari kuchaydi., o'quvchilarning ijodiy ishlash ko'nikma va malakalarini

rivojlantirish bosh maqsadga aylandi, o'qitishning samarali, ayniqsa, noan'anaviy, interfaol metod, vosita va usullarini tatbiq etishga bo'lgan intilishlari ortdi.

Ta'lism-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etish, mavjud imkoniyatlarni safarbar etish o'qituvchilarning asosiy vazifalaridan biridir. Har bir pedagog shuni esda tutishi kerakki, dars o'quv-tarbiya jarayonining asosiy shaklidir. O'qituvchi o'quvchilarni mustaqil fikrlash, mustaqil ijod qilishga o'rgatishi lozim. Darsda beshta maqsad ko'zda tutiladi: ta'lism, tarbiya, rivojlantirish, kasbga yo'llash va milliylik. Bu beshta maqsadni dars davomida amalga oshirish uchun interfaol usullardan foydalanib dars o'tish yaqindan ko'mak beradi. O'zlashtirilayotgan tajribani to'g'ridan to'g'ri o'quvchilarga o'zaro ta'sir harakati orqali yo'naltirish, interfaol metodlarni qo'llab dars o'tishning asosi bo'lib, bunday yondashuvda o'qituvchi tayyor bilimlarni bermaydi, balki o'quvchilarni mustaqil izlanishga chorlaydi. Hozirgi zamon darsiga qo'yiladigan eng muhim talablardan biri har bir darsda o'rganiladigan mavzuning ilmiy asoslangan bo'lishidir, ya'ni darsda ko'zlangan maqsad va o'quvchilar imkoniyatini hisobga olgan holda mavzu hajmini belgilash, uning murakkabligini aniqlash, avvalgi o'rganilgan mavzu bilan bog'lash, o'quvchilarga beriladigan topshiriq va mustaqil ishlarning ketma-ketligini aniqlash, darsda kerak bo'ladigan jihozlarni belgilash va qo'shimcha ko'rsatmali qollanma bilan boyitish, interfaol metodlardan foydalangan holda darsda muammoli vaziyat yaratishdir. Darsga qo'yiladigan asosiy talablardan biri ta'lism metodlari va usullarini bir-biri bilan mustahkam bog'lab olib borish samaradorligini oshirishdir. Darsga qo'yiladigan asosiy talablardan yana biri barcha didaktik vazifalar darsning o'zida hal etilishi, uyga beriladigan vazifalar o'quvchilarning darsda olgan bilimlarining mantiqiy davomi bo'lishi kerak, dars davomida o'qituvchi o'quvchilarning jismoniy holatini, ijodkorligini, tez fikrlashlarini hisobga olishi kerak, o'tilgan har bir darsning o'quvchilar bilan birga tahlil qilib borilishi ham yaxshi natija beradi.

Interfaol usullarning ahamiyati:

1. O'quvchilarda hamkorlikda ishlash ko'nikmasi shakllanadi.
2. O'quvchilarda ijodiy va mustaqil fikrlash malakalari tarkib topadi. Umumiy vazifalar yechimini topishda bir-birlariga ko'mak beradilar.
3. O'quvchilar o'z ishlari natijasiga, o'qishga, ta'lism olishga shaxsan mas'ullikni his qiladilar.

Ona tili darslarini tashkil etishda "Fikrlarning tarmoqlanishi", "BBB", "FSMU", "VENN diagrammasi", "Charxpalak", "Tushunchalar tahlili", "Raqamlar so'zlaganda", "Baliq skeleti", "Yelpig'ich", "Bumerang", "Zakovat", "Sinkveyn", "SWOT" tahlili kabi interfaol ta'lism metodlaridan foydalanish mumkin bo'lib, darslarni tashkil etishda ularning ahamiyati katta. Bu kabi metodlarni har bir o'qituvchi o'zi dars beradigan o'quvchilarning xarakteri, iqtidori va qiziqishlaridan kelib chiqib o'ziga xos yo'nalishda tashkil etishi, o'zgartirishi, ijodiy rivojlantirishi yoki o'xshash variantlaridan foydalanishlari mumkin.

Sinkveyn usuli. Sinkveyn – qisqa jumлага axborot singdirilgan matn. Sinkveyn quyidagi qoida asosida yoziladi.

- 1-satrda mavzu nomi bir so'z (ot) bilan beriladi.
- 2-satrda mavzuni tasvirlash ikki so'z (sifat) bilan beriladi.
- 3-satrda mavzu harakatini tasvirlash uchta so'z (fe'l) bilan beriladi.
- 4-satrda to'rtta so'zdan iborat qisqa jumla.

5-satrda mavzu mazmuni bitta so‘z (sinonim) bilan beriladi.

Namuna:

1. O‘qish.
2. Erkin, faol.
3. Uqimoq, yozmoq, gapirmoq.
4. Beshikdan qabrgacha ilm izla.
5. Ta’lim.

Bu usul ko‘nikma hosil qilishda, tushuncha va axborotlarni umumlashtirish hamda ixchamlashtirish uchun tez va kuchli vosita bo‘lib xizmat qiladi.

FSMU texnologiyasi. Bu texnologiyadan foydalanishda o‘qituvchi har bir o‘quvchiga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan qog‘oz varaqlarini tarqatadi va yakka tartibda ularni to‘ldirishni iltimos qiladi. Bunda:

F - fikringizni bayon eting

S - fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating;

M - ko‘rsatgan sababingizni asoslovchi misol keltiring;

U - fikringizni umumlashtiring.

O‘qituvchi o‘quvchilar bilan bahs mavzusini belgilab oladi.

Yakka tartibdagi ish tugagach, o‘quvchilar kichik guruhlarga ajratiladi va o‘qituvchi kichik guruhlarga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan katta formatdagi qog‘ozlarni tarqatadi.

Kichik guruhlarga har birlari yozgan qog‘ozlardagi fikr va dalillarni katta formatda umumlashtirgan holda 4 bosqich bo‘yicha yozishlari taklif etiladi.

Namuna:

F – Yordamchi so‘zlar o‘ziga xos grammatik xususiyatga ega.

S – Yordamchi so‘zlar gapda so‘z va gaplarni bir-biriga bog‘lash, munosabatga kiritish va qo‘sishma ma’nolar yuklash vazifalarini bajaradi.

M – Bog‘lovchilar uyushiq bo‘laklar va gaplarni o‘zaro bog‘lasa, ko‘makchilar so‘z birikmasi hosil qilishda ishtiroy qiladi. Yuklamalar esa fikrga so‘roq, taajjub, ayiruv, chegaralash kabi qo‘sishma ma’nolarni yuklab, so‘zlovchining fikrini oydinlashtirish uchun xizmat qiladi.

U – Yordamchi so‘zlar lug‘aviy ma’noga ega bo‘lmasa-da, nutqimizda ularning ahamiyati beqiyos.

“Muzyorar” usulidan o‘quvchilarning diqqatini darsga jalb qilishda foydalaniladi. Bu usulni qo‘llash orqali o‘qituvchi o‘quvchilarning darsga to‘liq tayyor ekanligini aniqlaydi. O‘qituvchi tomonidan berilgan ishora o‘quvchilarning o‘yinqaroqlik muhitini darsga jalb qiladi. Barcha o‘quvchilarning darsga tayyor ekanligini o‘qituvchi anglab oladi.

Yuqoridaqilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, interfaol usullarni qo‘llab dars o‘tilganda, sinfda qoloq, o‘zlashtirmaydigan o‘quvchi qolmaydi. O‘quvchilar o‘rtasida do‘stona muhit yaratiladi. Deyarli barcha o‘quvchilar dars jarayoniga jalb etilib, ularning darsga qiziqishlari ortadi. Chunonchi, interfaol usullar ta’lim jarayonida darslarni, sifati boyishiga va samarali tashkil etilishiga, o‘quvchilarning tashabbuskorligiga va yangiliklarni tezkor qabul qilishiga samarali ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchilarning kelgusida mustaqil bilim olishlariga, hunar o‘rganishlariga imkon yaratiladi. Zero, bugungi innovatsion yondashuvlar davrida mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan shaxsgina, o‘z

mavqeyiga ega bo‘ladi va bu o‘zi uchun ham, jamiyat uchun ham foydali bo‘lib, turli g‘arazli oqimlar ta’siriga berilmaydi.

**Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Umumiy o‘rtta ta’limning ona tili fanidan davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Toshkent, 2017.
2. Yo‘ldosheva D. Ashurbayeva R. Ona tili ta’limida zamonaviy pedagogik texnologiyalar.-T.: Turon Zamin Ziyo. 2018.
3. G‘ulomov A., Ernazarova M. va bosh. Ona tili o‘qish metodikasi. Toshkent, 2012.